

Mastercardning "Chegarasiz Keshbek" sodiqlik dasturida ishtirok etish to'g'risida

OMMAVIY OFERTA

Toshkent sh.

"1" oktyabr 2024 y.

PREAMBULA

Ushbu ommaviy oferta “**Mastercard Inc.**” xalqaro to‘lov tizimi (keyingi o‘rinlarda “Kompaniya” deb yuritiladi) tomonidan berilgan vakolatlar asosida **ATB “Kapitalbank”** (keyingi o‘rinlarda “Bank” deb yuritiladi) tomonidan hamkorlik shartnomasi doirasida joylashtirilgan va “Chegarasiz Keshbek” sodiqlik dasturida ishtirok etishning barcha muhim shartlarni o‘z ichiga oladi.

I. UMUMIY QOIDALAR.

1.1. Kompaniya Bank (O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Bankining 25.12.2021 yildagi 69-sonli litsenziyasi) orqali, Ustav asosida faoliyat yurutuvchi Bank Boshqaruvi raisi K.L.Mayevskiy nomidan, **18 yoshga to‘lgan jismoniy shaxslar—Bank tomonidan chiqarilgan Mastercard kartalari egalariga** (keyingi o‘rinlarda “Mijoz” deb yuritiladi) “Chegarasiz Keshbek” sodiqlik dasturida (keyingi o‘rinlarda “Dastur” deb yuritiladi) ishtirok etish to‘g’risida ushbu Shartnomani tuzishni taklif etadi.

1.2. Dastur Kompaniya tomonidan tashkil etiladi va O‘zbekiston Respublikasi hududida Mastercard kartalarining emitenti sifatida Bank orqali amalga oshiriladi.

1.3. Dasturni moliyalashtirish Kompaniya mablag'lari hisobidan Dasturning belgilangan budjeti doirasida amalga oshiriladi. Bank Dastur shartlarini amalga oshirish va mijozlarga keshbek to‘lovlarini to‘lash bo'yicha agent sifatida ish ko'radi.

1.3.1. Shartnoma doirasida keshbek deganda, Dastur doirasida karta bilan qilingan amaliyotlar summasining bir qismini qaytarish yo‘li bilan Mijozga to‘lanadigan pul mukofoti tushunilishi kerak. Keshbeklar Dastur shartlariga rioya etilgan holda va Dastur byudjetida zarur mablag'lar mavjudligiga qarab hisoblab chiqiladi va to‘lanadi, Dastur byudjetining miqdori Kompaniya tomonidan bir tomonlama tartibda belgilanadi va o‘zgartirilishlar kiritilishi mumkin. Dastur byudjeti to‘liq sarflangan taqdirda, keshbekni qaytarish Mijozlarni oldindan ogohlantirilmasdan to‘xtatilishi mumkin. Keshbekni to‘lashning oxirgi kuni — 01/10/2025 yil.

1.4. Kompaniya va/yoki Bankning erkin qaroriga ko‘ra, Dastur jamoatchilikni xabardor qilish maqsadida reklama va/yoki axborot materiallari orqali reklama qilinishi mumkin.

1.5. Dasturda ishtirok etish bepul bo‘lib, Mijozdan kartaga xizmat ko‘rsatish uchun Bankning standart tariflaridan tashqari qo‘srimcha to‘lovlar undirilmaydi.

II. SHARTNOMNI TUZISH TARTIBI.

2.1. Shartnoma O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 367 va 369-moddalariga muvofiq ommaviy oferta hisoblanadi.

2.2. Ushbu ommaviy ofertani qabul qilish (aksept qilish) Mijoz tomonidan Dastur doirasida Mastercard kartasidan foydalangan holda birinchi amaliyotni amalga oshirish hisoblanadi.

2.3. Mijozning aksept qilishi uning Shartnomaning barcha shartlarini hech qanday istisno va cheklolvlarsiz to'liq va so'zsiz qabul qilishini anglatadi.

2.4. Ushbu oferta Dasturning butun muddati davomida Mijozlar uchun <https://www.kapitalbank.uz> veb-saytida bepul va erkin foydalanish mavjud.

III. DASTUR SHARTLARI.

3.1. Mazkur Oferta Ishtirokchilarga ushbu Qoidalarga rioya qilgan holda Dasturning amal qilish muddati davomida Bank tomonidan chiqarilgan "Mastercard" to'lov tizimi kartalari (keyingi o'rirlarda "Kartalar" deb yuritiladi) yordamida amalga oshirilgan xaridlar uchun keshbek olish imkonini beradi. Bunda, xarid Kompaniya (Mastercard) tizimida keshbekning yakuniy to'lab berilish sanasidan kechiktirmay qayta ishlanishi/ro'yxatdan o'tkazilishi kerak.

3.2. Dasturning amal qilish muddati: 2024-yil 1-oktabrдан 2024-yil 31-dekabrgacha.

3.3. Dasturning amal qilish muddati (31.12.2024 (23:59:59)) tugagandan keyin Kompaniya va Bank ushbu Ofertada aniq ko'rsatilgan holatlardan tashqari, bundan keyin Dasturni to'xtatish yoki davom ettirishga olib kelishi mumkin bo'lган har qanday holatlar uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi.

3.4. Dastur faqat Kartalarga ega bo'lgan Mijozlar uchun O'zbekistondan tashqarida karta bilan xaridlarni amalga oshirish uchun tashkil etildi va o'tkazilyapti.

MUHIM: Dasturning amal qilish muddati davomida amalga oshirilgan, lekin keshbekni to'lashning yakuniy sanasidan (2024-yil 31-dekabrdan) keyin Mastercard tizimiga kiritilgan /qayta ishlangan xaridlar aksiyaning shartlariga muvofiq kelmaydi va shunga ko'ra ushbu Dastur doirasida hech qanday keshbek qaytarib olish huquqi mavjud emas deb qaratadi.

3.5. Karta orqali qilingan quyidagi xarajatlar Dastur shartlariga muvofiq hisobga olinadi:

- Ofertaga muvofiq, chet eldag'i restoranlar, kafelar va taksi xizmatlarida amalga oshirilgan xarajatlar. Bunda, O'zbekiston Respublikasi hududidagi restoran va kafelarda, shuningdek, taksilarda qilingan xarajatlar Dasturda hisobga olinmaydi;

- barcha valyutalarda amalga oshirilgan xarajatlar.

3.6. Keshbekni hisoblash shartlari:

- chet el restoran va kafelarda bir martalik to'lovlar uchun sarflangan summaning 5 foizi (har bir amaliyot uchun maksimal 35 000 so'm);

- xorijda taksi xizmatlaridagi operatsiyalar uchun 10% (har bir amaliyot uchun maksimal 35 000 so'm).

3.7. Keshbek olish uchun oylik cheklolvar:

- har bir Karta uchun chet eldag'i restoran va kafelardagi to'lovlar uchun maksimal 500 000 so'mgacha keshbek olishi mumkin;

- har bir Karta uchun xorijda taksi xizmati to'lovlar uchun maksimal 250 000 so'mgacha keshbek olishi mumkin.

3.5. Dastur faqat O'zbekistondan tashqarida quyidagi toifalardagi operatsiyalar uchun amal qiladi:

- savdo toifasi kodi 4121: LIMUZIN VA TAKSI;

- savdo toifalari kodlari 5812, 5814: JAMOATCHILIK OVQATLANISH JOYLARI, TEZ OVQATLANISH (FAST FOOD) RESTORANLARI.

3.6. Sotuvchining xarajatlar amalga oshirilgan sektori haqidagi ma'lumotlar tizimda noto'g'ri ko'rsatilgan yoki Dasturga kiritilmagan bo'lsa, keshbek hisoblanmaydi. Bunday holatda, Kompaniya va Bank bunday holatlar uchun javobgar emas.

3.7. Keshbekni hisoblash va to'lash quyidagi qoidalarga muvofiq amalga oshiriladi:

- Keshbek kartaning hisobvarag'i valyutasida amaliyot qayta ishlangan kundagi Mastercard va Bankning valyuta ayriboshlash kurslari bo'yicha hisoblanadi va to'lab beriladi;

- keshbekning umumiyligi summasi Bank tomonidan xalqaro operatsiyalar uchun belgilangan valyutani konvertatsiya qilish qoidalariiga muvofiq Karta hisobvarag'idan ko'chirmada aks ettiriladi;

- Bank valyutani konvertatsiya qilishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan kurs farqlari uchun javobgar emas;

- Valyutalarni konvertatsiya qilish va keshbek summasini hisoblash tartibi haqida batafsil ma'lumot olish uchun Mijoz mavjud aloqa kanallari orqali Bank bilan bog'lanishi mumkin.

3.8. Mijoz Dastur doirasida to'lovni amalga oshirayotgan har qanday restoran, kafe yoki taksi uning to'g'ri amalga oshirilishi uchun javobgar bo'lmaydi.

3.9. Dastur davomida chet el restoran va kafelarida, shuningdek, taksi uchun to'lov amalga oshirilganda mablag'larning bekor qilinishi yoki qaytarilishi keshbek olinishiga ta'sir qiladi.

3.10. Agar Dastur shartlari bajarilsa, keshbek quyidagi tarzda o'tkaziladi:

- Mijoz O'zbekiston Respublikasidan tashqaridagi tegishli savdo va xizmat ko'rsatish korxonalarida (faqat restoran, kafe va taksilarda) Kartadan foydalangan holda to'lovlar uchun amalga oshiradi;

- Bank Kompaniyaga Mastercard tizimidagi operatsiyalar to'g'risidagi ma'lumotlarni standart tranzaksiyalarni qayta ishslash jarayoni doirasida uzatadi;

- Mastercard tizimi Dastur shartlariga javob beradigan tranzaksiyalarni aniqlaydi, belgilangan qoidalari va foiz stavkalariga muvofiq keshbek miqdorini hisoblab chiqadi;

- Kompaniya hisoblangan keshbek to'g'risida Bankka ma'lumot yuboradi, shundan so'ng Bank mablag'larni Mijozning tegishli bank (karta) hisobvarag'iga o'tkazadi.

Keshbekni Kartaga o'tkazishning haqiqiy muddati operatsiya amalga oshirilgan paytdan boshlab 15 (o'n besh) kalendar kungacha davom etishi va operatsiyalarni qayta ishlashning texnik xususiyatlariga qarab o'zgarishi mumkin.

3.11. Hisoblangan keshbek to'g'risidagi ma'lumot Mijozga Bankning mobil ilovasida, shuningdek, Karta ko'chirmasida va Bankning boshqa masofaviy xizmat ko'rsatish kanallari orqali taqdim etiladi.

3.12. Dasturni moliyalashtirish. Keshbek to'lovi Kompaniya tomonidan belgilangan Dastur byudjeti doirasida amalga oshiriladi. Kompaniya Mijozlarni oldindan ogohlantirmsdan Dastur byudjeti hajmini bir tomonlama o'zgartirish yoki u tugaganidan keyin keshbek hisoblashni to'xtatish huquqini o'zida saqlab qoladi. Agar Dastur byudjeti to'liq sarf etilsa, keshbekni hisoblash Kompaniya tomonidan byudjetni to'ldirgunga qadar yoki Dastur tugatilgunga qadar avtomatik ravishda to'xtatiladi.

3.13. Mijoz O'zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligi talablariga muvofiq keshbek olish bilan bog'liq soliq majburiyatlarini bajarish uchun mustaqil ravishda javobgar bo'ladi. Kompaniya va Bank to'langan keshbekka nisbatan soliq agenti majburiyatini olmaydi va mijozlarga soliq masalalari bo'yicha maslahat bermaydi.

IV. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURATLARI.

4.1. Dastur doirasida Kompaniya quyidagi majburiyatlarni o'z zimmasiga oldi:

- Dasturning moliyalashtirilishini ta'minlash;
- Dastur shartlariga kiritilgan o'zgartirishlar to'g'risida Bankni o'z vaqtida xabardor qilish;
- Dasturga texnik yordam ko'rsatish.

4.2. Dastur doirasida Bank quyidagi majburiyatlarni o'z zimmasiga oldi:

- Dastur shartlarini amalga oshirish;
- Mijozlarga keshbek to'lovlarini amalga oshirish;
- Bankning rasmiy veb-sayti (www.kapitalbank.uz) orqali mijozlarni shartlarning o'zgarishi to'g'risida xabardor qilish.

4.3. Kompaniya va Bank quyidagi huquqlarga ega:

- Dastur shartlarini bir tomonlama o'zgartirish;
- Mijoz tomonidan suiiste'mollik aniqlansa, keshbek hisoblashni rad etish;
- Istalgan vaqtda Dasturni to'xtatib turish yoki tugatish;

- Dastur doirasida Mijozlarning operatsiyalarini monitoring qilish va Dastur shartlari yoki O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi buzilganligi, firibgarlik, noqonuniy harakatlar yoki ularni sodir etishga urinishlar, shuningdek Kompaniya, Bank yoki Dastur obro'siga zarar yetkazuvchi harakatlar aniqlangan taqdirda, Mijozning Dasturda ishtirok etishini to'xtatish, hisoblangan, lekin to'lanmagan keshbekni bekor qilish, Mijozni Dasturdan chiqarib tashlash va keyinchalik dasturda ishtirok etishni rad etish huquqiga ega bo'ladi, bunda mijoz hisobvarag'iga allaqachon o'tkazilgan kasbek bekor qilinmaydi, Kompaniya va Bank yuqoridagi choralarни qo'llashda mijozga hech qanday kompensatsiya to'lash majburiyatini olmaydi;

- Ushbu Ofertada ko'zda tutilgan boshqa huquqlarga ega.

V. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI VA NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI

5.1. Tomonlar O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladilar.

5.2. Kompaniya va Bank quyidagilar uchun javobgar emas:

- Mijoz tomonidan Dastur va Sharhnomalar shartlarini buzish oqibatida yuzaga kelgan zararlar;

- Kompaniya va Bankga bog'liq bo'lmasan texnik nosozliklar;

- savdo va xizmat ko'rsatish korxonalari reklama materiallari mazmuni va ularning harakatlari;

- Mastercard tizimida savdo nuqtasi toifasi to'g'risida noto'g'ri ma'lumot.

Ushbu javobgarlik cheklarini ro'yxati to'liq emas va O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan doirada qo'llaniladi.

5.2.1. Bunda, Kompaniya Dasturni amalga oshirish doirasida Bankning harakatlari/harakatsizligi uchun javobgar bo'lmasdi, xuddi shuningdek, Bank ham Dasturni amalga oshirish jarayonida Kompaniyaning harakatlari/harakatsizligi uchun javobgar bo'lmasdi.

5.3. Mijoz va savdo va xizmat ko'rsatish korxonalari o'rtaida barcha munosabatlar, shu jumladan tovarlar va xizmatlar sifati, ularni taqdim etish, tovarlarni qaytarish yoki almashtirish shartlari faqat ushbu korxonalar qoidalari va amaldagi qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi. Kompaniya va Bank Dastur doirasida xaridlarni amalga oshirishda Mijoz va savdo va xizmat ko'rsatish korxonalari o'rtaida yuzaga keladigan nizolar va kelishmovchiliklar uchun javobgar emas.

5.4. Dastur doirasida yoki u bilan bog'liq holda Tomonlar o'rtaida yuzaga keladigan barcha nizolar va kelishmovchiliklar muzokaralar yo'li bilan hal qilinishi kerak. Muzokaralar yo'li bilan kelishuvga erishishning iloji bo'lmasa, nizolar O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Bank joylashgan yerdagi fuqarolik ishlari bo'yicha sudga yuboriladi.

VII. SHAXSIY MA'LUMOTLAR.

7.1. Mijoz Kompaniya va Bankga Dastur maqsadlari uchun shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlashga rozilik beradi.

7.2. Shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlash quyidagilarni o'z ichiga oladi: shaxsiy ma'lumotlarni yog'ish, qayd etish, tizimlashtirish, toplash, saqlash, aniqlashtirish (yangilash, o'zgartirish), olish, foydalanish, uzatish (ta'minlash, kirish), shaxsiylashtirish, blokirovka qilish, o'chirish va yo'q qilish.

7.3. Shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlash maqsadlari:

- Dastur doirasida mijozni aniqlash;
- keshbekni hisoblash va to'lash;
- operatsiyalar va hisob-kitoblar holati to'g'risida ma'lumot berish;
- Dastur haqida axborot-xabarlarini yuborish;
- statistik va marketing tadqiqotlarini o'tkazish.

7.4. Mijoz Kompaniya va Bank shaxsiy ma'lumotlarning maxfiyligi va xavfsizligini ta'minlash sharti bilan Dasturni amalga oshirishda jalb qilingan uchinchi shaxslarga shaxsiy ma'lumotlarni uzatish huquqiga ega ekanligiga rozilik bildiradi.

7.5. Shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlashga rozilik mijozning Dasturda ishtirok etishining butun davri uchun va u tugaganidan keyin 5 yil davomida amal qiladi.

7.6. Mijoz bankka tegishli yozma bildirishnomasi yuborish orqali shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlashga roziligidini qaytarib olishga haqli. Bunday holda, mijozning dasturdagi ishtiroki to'xtatiladi.

7.7. Kompaniya va Bank shaxsiy ma'lumotlarning maxfiyligini saqlash va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga muvofiq qayta ishlash jarayonida ularning xavfsizligini ta'minlash majburiyatini oladi.

VIII. DASTURNI O'ZGARTIRISH VA TUGATISH.

8.1. Kompaniya, Bank orqali, Dasturning har qanday shartlarini, bir tomonlama tartibda, lekin cheklanmagan holda o'zgartirishga haqli: keshbekni hisoblash miqdori va tartibi; Dasturda ishtirok etuvchi operatsiyalar ro'yxati; hududiy cheklar; mukofotni to'lash muddatlari va usullari; Dasturning boshqa muhim shartlari. Barcha o'zgartirishlar Bankning www.kapitalbank.uz rasmiy veb-saytida e'lon qilingan paytdan e'tiboran kuchga kiradi. Mijoz bank veb-saytidagi dastur haqidagi dolzarb ma'lumotlarni mustaqil ravishda kuzatib borish majburiyatini oladi. O'zgartirishlar kiritilgandan so'ng Dastur doirasida kartadan foydalanishda davom etish Mijozning yangi shartlarga roziligidini bildiradi.

8.2. Dastur shartlariga o'zgartirishlar kiritilgandan so'ng Mijozning Kartadan foydalangan holda operatsiyalarini amalga oshirishi uning kiritilgan o'zgarishlarga roziligidini tasdiqlaydi.

8.3. Kompaniya va Bank veb-saytidagi Dastur to‘g‘risidagi ma’lumotlarning to‘g‘ri va dolzarb bo‘lishini ta’minlashga intiladi, lekin texnik xatolar yoki matn terish xatolari ehtimolini istisno qilmaydi. Agar noaniqliklar aniqlansa, Kompaniya va Bank oldindan ogohlantirmsandan Dasturning axborot materiallariga kerakli tuzatishlar kiritish huquqiga ega.

8.4. Mijozning dasturda ishtirok etishi karta hisobvarag‘i yoki karta yopilgan taqdirda avtomatik ravishda to‘xtatiladi. Bunday holda, hisoblangan, lekin to‘lanmagan keshbek bekor qilinadi.

8.5. Bank tomonidan yoki vakolatli organlarning qaroriga ko‘ra Karta bloklangan (hisobvaraqlar yopib qo‘yilgan yoki hisobvaraqlar bo‘yicha operatsiyalar to‘xtatilgan) hollarda keshbekni hisob-kitob qilish Karta yangilangunga qadar to‘xtatiladi yoki u yakuniy yopilgan taqdirda tugatiladi. Ushbu holatda:

blokirovkadan oldin hisoblangan va mijozning hisobiga kiritilgan keshbek bekor qilinmaydi yoki qaytarib olinmaydi;

hisoblangan, lekin blokirovka bekor qilinguncha to‘lanmagan keshbek bekor qilinadi;

blokirovkadan oldin amalga oshirilgan, lekin undan keyin qayta ishlangan operatsiyalar Dasturda ishtirok etmaydi;

Kartani blokdan chiqargandan so‘ng agar Dasturning amal qilish muddati tugamagan va Dastur byudjetida qoldiq mavjud bo‘lgandagina keshbek hisobini qayta tiklash amalga oshiriladi.

8.6. Kompaniya dasturning amal qilishini bir tomonlama to‘xtatish huquqiga ega bo‘lib, to‘xtatish rejalashtirilayotgan sanadan kamida 24 soat oldin Bank veb-saytida tegishli ma’lumotni joylashtirish orqali bu haqda xabardor qiladi. Dastur muddatidan oldin to‘xtatilgan taqdirda, Kompaniya va Bank Mijozlar va boshqa shaxslarning ko‘rishi mumkin bo‘lgan zararlari yoki boy berilgan foydasi uchun javobgar bo‘lmaydi, shuningdek, biror-bir kompensatsiya to‘lovlarini amalga oshirmaydi.

IX. SHARTNOMA MUDDATI.

9.1. Shartnomma Dasturning amal qilish muddati tugagunga yoki muddatidan oldin tugatilgunga qadar amal qiladi.

X. YAKUNIY QOIDALAR.

10.1. Agar ushbu Ofertaning biron bir qoidasi haqiqiy emas yoki majburiy ijroga qaratib bo‘lmaydigan deb topilsa, bunday qoida bekor qilingan deb hisoblanadi, Ofertaning qolgan qoidalari esa yuridik kuchini saqlab qoladi va to‘liq hajmda amal qilishda davom etadi.

10.2. Ushbu Oferta Tomonlar o‘rtasida Dasturning predmeti bo‘yicha oldingi barcha yozma va og‘zaki kelishuvlarni to‘liq o‘rnini bosadi. Dastur to‘g‘risida ilgari e’lon qilingan ma’lumotlar va ushbu Oferta shartlari o‘rtasida ziddiyat yuzaga kelgan taqdirda, agar unda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, Oferta qoidalari qo‘llaniladi.

10.3. Kompaniya yoki Bank tomonidan ushbu Oferta bo'yicha biron bir huquq yoki huquqiy himoya vositasidan foydalanmaslik yoki kechiktirish bunday huquq yoki huquqiy himoya vositasidan voz kechishni anglatmaydi.

10.4. Sharhnomalar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq tartibga solinadi va talqin qilinadi.

10.5. Dasturda ishtirok etish bilan bog'liq barcha savollar bo'yicha Mijoz Bank bilan quyidagi yo'llar orqali bog'lanishi mumkin:

- Bankning mobil ilovasi orqали;
 - customer_support@kapitalbank.uz elektron pochta orqали;
 - telefon orqали: +998 71 200 15 15 yoki 1340;
- + 100047, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Sayilgoh ko'chasi, 7-uy manziliga yozma so'rov yuborish orqали.

10.6. Murojaatlarni ko'rib chiqish muddati kelib tushgan kundan boshlab 15 kalendar kunni tashkil etadi. Qo'shimcha ma'lumot yoki hujjatlarni olish zarurati tug'ilganda, ko'rib chiqish muddati zarurati tug'ilgan kundan boshlab 15 kalendar kunga uzaytiriladi, bu haqda mijoz qo'shimcha ravishda xabardor qilinadi.

10.7. Bank ushbu Ofertani Kompaniya tomonidan berilgan vakolatlar asosida joylashtirmoqda.

XI. BANK TAFSIOTLARI. **ATB "Kapitalbank"**

Manzil: 100047, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Sayilgoh ko'chasi, 7-uy

Bank bilan aloqa usullari: E-mail: customer_support@kapitalbank.uz

Telefon: +998 71 200 15 15 Qisqa raqam: 1340